

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING DOLZARB MUAMMOLARI



**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**MATEMATIKA VA INFORMATIKA FAKULTETI
INFORMATIKA VA UNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

T O‘ P L A M I

2023 yil 23-24 iyun

Termiz -2023

“Informatika va axborot texnologiyalarining dolzarb muammolari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami – Termiz: Institut, 2023 y. 478 bet

To‘plamga 2023 yil 23-24 iyun kunlari Termiz davlat pedagogika institutida **“Informatika va axborot texnologiyalarining dolzarb muammolari”** mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani qatnashchilarning ma’ruza materiallari kiritilgan. To‘plam maktab va maktabgacha ta’lim pedagoglari, OTM professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim – izlanuvchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar va bakalavrlar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu to‘plam Termiz davlat pedagogika instituti kengashining 2023 yil ____ __dagi ____-sonli qarori bilan nashga tavsiya etilgan.

Tahrir hay’ati

Rais: I.Xasanov v.v.b. rektor,

A’zolar:

O.H.Kadirova	—	Ilmiy ishlar va innovasiyalar bo’yicha prorektor, rais o’rinbosari
P.J.Tojiyev	—	O’quv ishlari bo’yicha prorektor, a’zo.
I.T.Xasanov	—	Yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo’yicha prorektor, a’zo
I.Xudoyberdiyev	—	Institut matbuot kotibi, a’zo.
U.Berdiyev	—	Matematika va informatika fakulteti dekani, a’zo.
S.Sattorov	—	Informatika va uni o’qitish metodikasi kafedrasini mudiri, a’zo.
M.Alimov	—	Informatika va uni o’qitish metodikasi kafedrasini, a’zo

Taqrizchilar:

professor, Ch.B Normurodov
professor, O.Xatamov

Anjuman to‘plamiga kiritilgan maqolalarning mazmuniga mualliflar javobgardir.

© Termiz davlat pedagogika instituti, 2023.

7. Менглиев Ш.А., Жураева З.К., Олий таълим тизимида электрон дарслик ёрдамида табиий фанларни ўқитиш. Мехнат ва касб таълим соҳаларида юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий материаллари. Термиз-2014 й. 448 б.
8. Mengliyev SH.A., Abdullayev B., Jo'rayeva Z., Informatika fanidan elektron darslik yordamida o'quvchilar bilimni mustahkamlash. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва этномаданий ҳаёт. Тарих ва таҳлил Республика илмий анжумани мақолалар тўплами. Термиз-2014 й. 515-516 б.
9. Mengliyev SH.A., Umarzoda Sh.A., Ta'limda elektron darslikning dolzarbligi. Ёш олимлар Республика илмий-амалий конференцияси 2016 й. 360 б.
10. Менглиев Ш.А., Гуломқодиров К., Жўраева З.Қ., Масофавий ўқитишда web сайтларнинг ўрни. IX Международная научно-практическая интернет-конференция актуальные научные исследования в современном мире. Украина 2016 г. 95 с.
11. Mengliyev SH.A. Elektron darslikdan foydalanishning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni. Surxondaryoda ilm va fan Ilmiy innovatsion jurnal №3-4(05) 2021 y. 21-26 б.

Qolip gaplarni faollashtirishning nutq o'qitirish zamonaviy usullari tizimidagi o'rni

Gulnoza Ahmedova Muxtorovna, pedagogika fanlari doktori,

Email: rsamsung958@gmail.com,

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti dotsenti

Аннотация: Данная статья посвящается анализу моделирования содержания по типам и подтипам побудительных реплик, и практическим возможностям в речи обучающихся. Вместе с этим в статье раскрывается линводидактические особенности побудительных реплик в речевых штампах и исследуются принципы особенностей словообразования их структурного состава.

Ключевые слова: речевые штампы - неизменяющиеся стандартные предложения, побудительные - побудить к действию, креативность творческая деятельность, линводидактический - относится к лингвистическому обучению.

Summary: This article is dedicated to the analyzing of modeling contents on the types and subtypes evoking statements and their practical opportunities on the speech of the learners and the structural compound of principle of the word shaping.

Key words: stalnps of speech - unchanged standard sentence, evoking, creativiarl, lingodidactic releant to the linguistic lraining.

Ta'lim-tarbiya maskanlarida, oliy ta'lim dargohlarida o'quvchilarning nutqi ancha sayozlashib ketayotgan hozirgi kunda o'qituvchidan yuqori malaka egasi bo'lish bilan birga amalda ilg'or tajriba va metodologiyaga kreativ yondashuv talab etiladiki, bunda kundalik odatdagi dars sharoitidagi mukammal rejalashtirilganlik hamda shunga mos metodlarni qo'llashda nutqiy muloqot odobini oshirishga ta'siri ko'zda tutiladi.

Suhbatni davom ettirish, to'xtatish uchun xizmat qiluvchi, suhbatdoshining fikrlariga munosabat ifodalovchi *tashkiliy omillar* yoki *muloqotga munosabat shakllari*; 2) axborot almashinuvi mazmunidagi replikalari. Ta'lim oluvchilarga bu kabi mashhur so'z zargarlarining nutqlaridan namunalarni o'rgatib borish maqsadga muvofiq.

"Ertangi mutaxassis nafaqat hayotdan, balki o'zining atrofidagi yaqinlari, ustozlari, rahbarlari, jami faoliyatlar jarayoni, jami borliq, turfa xil voqeliklardan tinmay ilm olib, fazilat o'rganib, kasbiy nutqi mukammallashib boradi". "Latif jumlar barcha davralarda qadrlanadi".

Nutq madaniyati amaliyoti ta'lim oluvchilarga professional leksikaga oid terminlarni va hikmatli so'zlarni ham o'rgatadi:

"Yurakdan chiqayotgan so'z - yuraklarga boradi.

Odamning kimligi tilidan biladilar.

So'zamollik bilimiga yarashadi". (Tohir Malik).

Til materialining aynan xotirada saqlanishi, ayrim o'zgartirishlar kiritilishi, yangidan yaratilishi nuqtai nazaridan mashqlar bir-biridan o'zaro farqlanadi. Cunonchi: o'zgarishsiz bajariladigan mashqlar, yarim ijodiy mashqlar, ijodiy mashqlar.

O'zgarishsiz bajariladigan (mexanik) mashqlar retseptiv yoki reproduktiv bo'lishidan qat'i nazar, to'lig'icha bog'lanishli matn va suhbatlar asosida bajariladi, ulardan chetga chiqilmaydi, gap tuzilishlari aynan saqlanadi. Masalan, deyarli barcha darsliklarda ko'p uchraydigan quyidagi topshiriqlarni o'zgarishsiz bajariladi: berilgan savollarning javobini topish, javoblarga qarab qanday savollar berilganligini topish, javoblarga qarab savollar tuzish, qolip gaplarni eslab aytish va boshqalar.

Darsliklardagi yarim ijodiy mashqlar savollar yoki javoblarga qisman tuzatishlar kiritish, ularni ijodiy savollar yoki ijodiy javoblarga yaqinlashtirishni ko'zda tutadi. Masalan, quyidagi kabi topshiriqlar shu tarzda bajariladi: namuna asosida savol-javoblar tuzish (va o'zaro so'zlashish), berilgan so'zlarning shaklini o'zgartirgan holda unga so'roq berib savol tuzish va o'zaro so'zlashish, namunadan foydalanib o'z dialogini tuzish, savollarning har biriga uchtdan so'z bilan javob berish, savollarga inkor ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan javob berish va b.

Darsliklardagi ijodiy mashqlar o'quvchilarning o'zbek tilidagi muloqotga to'liq mustaqillik asosida kirishishlarini ifoda etadi. Bunday mashqlar sirasiga quyidagilar kiradi: rasm asosida savollar tuzib, o'zaro so'zlashish (suhbatlashish, bir-biriga savol berib, javob qaytarish), bir-biri bilan telefonda biror narsa haqida gaplashish, rasm asosida unda tasvirlangan narsa-buyumlar, kasb egalari haqida bahslashish, narsa-buyumlar, kasb egalariga, ularning faoliyatiga baho berish, do'stiga ba'zi shartlarni qo'yib suhbatlashish, uni dialog tarzida yozish.

Umuman, darsliklarda o'tilayotgan mavzular bo'yicha nutqiy muloqot madaniyatiga doir ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi mashq turlarini ajratish mumkin:

1. Dialog namunasini o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar.
2. Dialog namunasini to'ldirish orqali ayrim replikalarni o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar.
3. Boshlanishi berilgan dialogni davom ettirish talab etiladigan mashqlar.
4. Nutqiy vaziyat asosida dialog tuzishga oid mashqlar.

5. Rasmlar asosida dialog tuzishga doir mashqlar.

4-mashq turi o'rganilayotgan replikalarni nutqiy vaziyatlar bilan bog'lash, nutqiy vaziyatga tayanib, ularni yodga keltirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki nutqiy vaziyatlar namunadan foydalanmagan holda dialog tuzish uchun o'quvchiga turtki beradi.

Nutqiy vaziyatlar qaysi tilda ifodalanishiga qarab oson yoki qiyin anglanadi. Agar ular rus tilida ta'riflansa, o'quvchilardan o'zbekcha replikalarni mustaqil ravishda tuzish, yodga keltirish kabi yumushlarni ado etish so'raladi. Agar ular o'zbek tilida aytilsa, yoshlar avval ta'rifni anglash bilan bog'liq qiyinchilikni yengib o'tishlari kerak. Shundan keyingina tegishli gapni aytish zaruriyati bilan bog'liq amallar bajariladi.

Bir mavzudagi nutqiy vaziyatlar shu mavzuda o'zaro so'zlashish mundarijasiga ishora qiladi. U yoki bu mavzuda nimalar haqida suhbatlashish, kimdandir so'rash kerakligi ana shu mundarijani ifoda etadi. Ma'lumki, o'quvchilardan suhbatdoshiga savol berish so'ralganda, u o'zida savol yo'qligini aytadi. Shuning uchun nutqiy vaziyatlar ko'lami bir mavzuda bo'ladigan so'zlashuv mazmuniga ham ishora qilishini nazarda tutib, mavzular doirasini keskin emas, balki asta-sekin kengaytirib borish darkor.

5-mashq turida rasm nutqiy vaziyatni anglatish va dialogni yuzaga keltirish uchun qudratli omil sanaladi.

Umuman, darsliklarda o'tilayotgan mavzular bo'yicha nutqiy muloqot madaniyatiga doir ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi mashq turlarini ajratish mumkin:

1. Dialog namunasini o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar.
2. Dialog namunasini to'ldirish orqali ayrim replikalarni o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar.
3. Boshlanishi berilgan dialogni davom ettirish talab etiladigan mashqlar.
4. Nutqiy vaziyat asosida dialog tuzishga oid mashqlar.
5. Rasmlar asosida dialog tuzishga doir mashqlar.

4-mashq turi o'rganilayotgan replikalarni nutqiy vaziyatlar bilan bog'lash, nutqiy vaziyatga tayanib, ularni yodga keltirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki nutqiy vaziyatlar namunadan foydalanmagan holda dialog tuzish uchun o'quvchiga turtki beradi.

Nutqiy vaziyatlar qaysi tilda ifodalanishiga qarab oson yoki qiyin anglanadi. Agar ular rus tilida ta'riflansa, o'quvchilardan o'zbekcha replikalarni mustaqil ravishda tuzish, yodga keltirish kabi yumushlarni ado etish so'raladi. Agar ular o'zbek tilida aytilsa, yoshlar avval ta'rifni anglash bilan bog'liq qiyinchilikni yengib o'tishlari kerak. Shundan keyingina tegishli gapni aytish zaruriyati bilan bog'liq amallar bajariladi.

Bir mavzudagi nutqiy vaziyatlar shu mavzuda o'zaro so'zlashish mundarijasiga ishora qiladi. U yoki bu mavzuda nimalar haqida suhbatlashish, kimdandir so'rash kerakligi ana shu mundarijani ifoda etadi. Ma'lumki, o'quvchilardan suhbatdoshiga savol berish so'ralganda, u o'zida savol yo'qligini aytadi. Shuning uchun nutqiy vaziyatlar ko'lami bir mavzuda bo'ladigan so'zlashuv mazmuniga ham ishora qilishini nazarda tutib, mavzular doirasini keskin emas, balki asta-sekin kengaytirib borish darkor.

5-mashq turida rasm nutqiy vaziyatni anglatish va dialogni yuzaga keltirish uchun qudratli omil sanaladi.

“So‘z qahramonliklarga yetaklay oladi...” Taniqli jurnalist Mahmud Sa’diy aytganlariday, ustoz Asqad Muxtor har bir “so‘zni qayliq tanlaganday sevib saylagan hassos adiblardan biri edi”.

“Xush kelibsiz, oliygohimizga, farzandlarim!” Bilim eshiklari sizlarga ochiq”.

Bu oliygoh rahbarining talabalarning tantanali qasamyod marosimidagi tabrik nutqidan namuna. Iborada ilk qadamini institut dargohiga qo‘ygan talabaga kelajakda oliy ma‘lumot olishiga ishonch bildirilyapti. Bunday qo‘llab-quvvatlash doimo kuchaytirib borilsa, ta‘lim oluvchiga qanot bag‘ishlaydi.

“Niyatingga yet!” Demak, o‘qituvchi odatdagi muloqotida shunday yo‘naltiruvchi motivlardan o‘rinli foydalanganda asl madaniy boyligimiz o‘z sayqalini topa boshlaydi, natijada yosh nihol barkamol bo‘lib o‘sadi:

“Shoshma, eslab ko‘r!”, “Shubhasiz to‘g‘ri, barakalla”, “Otangga rahmat, bilag‘on!”

Bu kabi ibratga undovchi qolip gaplar ustozning oliy o‘quv yurtidagi qadr-qimmat, salohiyat darajasini belgilaydi. Ustoz qaysi sohadan dars bermasin, o‘zining gapirish ohangi, toni, diksiya, stili, taktiga e‘tibor berishi, ya‘ni pedagogik muloqotini ta‘lim oluvchilarga ta‘sir etish quroli sifatida takomillashtirib borishi zarur.

“Umringdan baraka top, qizim!”, bu oddiygina maqtov-gapdan olam-olam ma‘no olamiz.

Bu iboradan pedagogning qoyillatib javob berib, o‘z salohiyatiga loyiq shogirdning ustozidan maqtov eshitgandagi quvonchini sezamiz. Bu muloyim rag‘batga yo‘g‘rilgan gapni boshqa tilda xuddi shunday aytib bo‘lmasa kerak. Nafis jarangdor jumla qulog‘imizda butun umr qoladi.

Gapdan olqish egasining qanday fe‘l-atvorli insonligi, dunyoqarashi qandayligini bilish qiyin emas.

“Rahmat”, “Xayr”, “Kechirasiz”, “Uzr”, “Barakalla”, “Xush kelibsiz”, “Marhamat”, “Iltimos”, “Mayli”, “Bormisiz?”, “Yaxshimisiz”, “Baraka toping”, “Omon bo‘ling”, “Sog‘ bo‘ling” kabi etiket shakllarini qaysi vaziyatlarda qaysi turini aynan ishlatishni bilish muhimdir

“Voiz avval elning yuragiga quloq tutib, tomirini tinglab, dardini qayerda ekanini obdon o‘rganadi, so‘ng unga dori quyish uchun minbarga chiqadi”, - deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoira, yozuvchi va madaniyat targ‘ibotchisi Tursunoy Sodiqova.

Хулоса сифатида қуйидагиларни таъкидлаш мумкин:

1. “Nutqiy muloqot madaniyati” ifodasining ma‘no-mazmun ko‘lamini oddiy savol-javoblar emas, balki muomala odobi qoidalariga rioya qilish, bunda ijtimoiy munosabatlar, suhbatdoshlarning shaxsiy xususiyatlari, real fikr almashish bilan shartlanuvchi dialogik nutq – o‘zaro so‘zlashuv mujassam holda tashkil etadi.

2. Nutqiy muloqot madaniyati deganda odamlarning o‘zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyot davri davomida shakllangan muomala odobi qoidalariga rioya qilib, ijtimoiy shart-sharoit, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib, shuningdek, shaxsning o‘zligini va o‘zgalarning (suhbatdoshlarning) shaxsini, ruhiyatini, jamiyatda tutgan mavqeyini anglash asosida, nutqning kommunikativligiga e‘tibor bergan holda muloqotda ishtirok etishi tushuniladi.

3. Dialogik nutq replikalari tuzilishi jihatidan ikki guruhga ajratiladi: 1) qolip gaplar; 2) tarkibini o'rganish orqali mustaqil ravishda tuzish mumkin bo'lgan gaplar. Shuningdek, replikalar o'zaro so'zlashuv mazmuniga aloqador yoki aloqador emasligiga ko'ra ham ikki turli bo'ladi: 1) dialogni boshlash, davom

Axborotlar bilan ishlashda fanlararo aloqalarni o'rnatish bosqichlari va usullari

*Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna – Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Fanlararo aloqadorlik mustaqil didaktik tamoyildir. Pedagogik tadqiqotlarda fanlararo aloqadorlikning mazmuni, uning komponentlari orasidagi tuzilmaviy nisbatlar, o'qitish jarayonida ularning funktsiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar. Ta'lim tizimi, o'quv jarayoni, integratsiya, fanlararo bog'liqlik, tamoyillar, usullar,

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktab ta'limidagi fanlararo aloqalar bugungi kunda fan va jamiyat hayotida ro'y berayotgan integratsiya jarayonlarining konkret ifodasidir. Bu bog'lanishlar o'quvchilarning amaliy va ilmiy-nazariy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi, uning muhim xususiyati maktab o'quvchilarining bilish faoliyatining umumlashgan xarakterini egallashidir. Umumlashtirish bilim va ko'nikmalarni o'quvchilarning kelajakdagi ishlab chiqarish, ilmiy va ijtimoiy hayotida ham o'quv, ham maktabdan tashqari ishlarda muayyan masalalarni ko'rib chiqishda muayyan vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Fanlarni o'zaro bog'lagan holda dars tashkil etilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;
- fan o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin. Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur. Umuman olganda fanlararo bog'likda tashkillashtirilgan dars bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish o'quv dasturlarida mavzularni o'rganishda bir-birini takrorlashning yo'qotilishi, muammolarni o'rganish vaqtini keltirish, ilmiy tushunchalarni ta'riflash-tavsiflashda o'xshashlik, o'quvchilarda ilmiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda, ularga amaliy mahorat va ko'nikmalarni singdirishda birlashtirilishi, o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar olgan ilmiy va texnik bilimlardan o'qituvchilar tomonidan o'zaro foydalanish, o'quv fanlarining o'ziga xosligi va ular

4-SHO'BA: INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

1.	<i>Ta'limda zamonaviy innovatsion o'qitish usullaridan foydalanishning afzalliklari.</i> <i>H.Egamberdiyev - Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, dotsent v.b (PhD)</i> <i>I.Jurayev - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali magistri</i> <i>S.Kamolova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali magistri</i>	370-372
2.	<i>Masofali ta'limdan foydalanishda elektron darslikning o'rni</i> <i>Mengliyev Shaydulla Abdusalomovich, Termiz davlat universiteti amaliy matematika va informatika kafedrasi dotsenti.</i>	372-375
3.	<i>Qolip gaplarni faollashtirishning nutq o'stirish zamonaviy usullari tizimidagi o'rni</i> <i>Gulnoza Ahmedova Muxtorovna, pedagogika fanlari doktori, Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti dotsenti</i>	375-379
4.	<i>Axborotlar bilan ishlashda fanlararo aloqalarni o'rnatish bosqichlari va usullari.</i> <i>Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna, Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi</i>	379-381
5.	<i>Axborot-kutubxona tizimlarida foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlariga mos manbalarni taqdim etish.</i> <i>F.Bekkamov, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti.</i>	381-383
6.	<i>Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qitish metodikasini individual yondashuv asosida takomillashtirish</i> <i>Azimqulov Sayxun Niyozali o'g'li, Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>	384-385
7.	<i>Ta'lim jarayonida medianing ahamiyati. 5G mobil aloqa tarmog'ining afzalliklari va kamchiliklari.</i> <i>Alimov Mirkamol Mengliboyevich – Termiz davlat pedagogika instituti "Informatika va axborot texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi</i> <i>Mustafaqulova Jasmina- Termiz davlat pedagogika instituti Matematika va informatika yo'nalishi 1- bosqich talabasi.</i>	386-388
8.	<i>Lesson in the process from information and communication technologies use methodology</i> <i>M. Y. Kasimova, Sh.R.Eshboyeva, Fergana Polytechnic Institute</i>	388-391
9.	<i>Improving the methodology of developing students' thinking in computer science classes</i> <i>Kholmurodov Shukhrat Okboyevich. Teacher of Termiz State Pedagogical Institute</i>	391-394